

## MAXTUMQULI SHE'RLARIDAGI O'XSHATISHLAR XUSUSIDA

**Kilichov Nazarbay Radjapbayevich,**  
*Qoraqalpoq davlat universiteti, f.f.f.d.*  
*(PhD), dotsent*

**Amangeldiyeva Gowher,**  
*Qoraqalpoq davlat universiteti, talaba*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada buyuk turkman shoiri, mutafakkir Maxtumquli Firog'iy she'riyatidagi o'xshatishlar tahlil qilingan.

*Kalit so'zlar:* Maxtumquli, o'xshatishlar, turg'un o'xshatishlar, erkin o'xshatishlar, o'xshatish asosi, o'xshatish vositasi.

Maxtumquli Firog'iy she'rlarida uchraydigan alohida leksemalar, an'anaviy turg'un o'xshatishlar, shoir qalb prizmasida qayta ishlangan xalq maqollari, frazeologizmlar, ko'chma ma'noli so'zlar o'qirmanlar tilida har xil munosabatlar bilan, turli davralarda esga olinadi, aytiladi, biror munosabat bilan fikr tasdig'i uchun keltiriladi. Maxtumquli she'rlaridagi yuqorida sanalgan leksik, frazeologik, paremiologik birliklarning bir qismi o'quvchilar uchun tushunarli bo'lsa, ayrimlarini izohlash, sharhlash, tavsiflashga ehtiyoj seziladi.

Maxtumquli she'rlarida qo'llanilgan o'xshatishlar shoir niyatini obrazli tasvirlash, o'quvchi ko'z o'ngida tuyg'u, tushuncha, predmet, shaxs yoki ularning xususiyatlarini yaqqol gavdalantirish maqsadida keltiriladi. "Aytish joizki, sof qiyosga qaraganda o'xshatishlar nutqda sezilarli darajada katta badiiy-uslubiy va lingvopoetik imkoniyatlarga ega bo'lgan konstruksiyalardir. Shuning uchun ham o'xshatishlar dunyo filologiya ilmida eng qadimgi davrlardan boshlab nutq ta'sirchanligini ta'minlaydigan alohida vosita sifatida tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan" [1: 5].

Firog'iy she'rlaridagi o'xshatishlarni dastlab ikki guruhga ajratib o'rganish zarur, ya'ni:

1. Erkin o'xshatishlar: *Rum dek, misli guyun dek, bijin kimin, ak kagaz dek (bilek), Gulferhar dek, zagpyran dek, kowser dek* va boshqalar. Masalan:

Yowuz galyp bu jahanda telmurar bu şirin jan,

Sensiz indi men pakyram boldum, neýleý, natuwan,

Gymmatyndan aýrylypdyr, gözüme zyndan jahan,

Yörisem *misli guyun dek*, taparynmy bir nyşan,

Walydam, Mekge-Medinäm, mähribanym, kaýda sen? ("Kaýda sen") [2: 65]

Erkin o‘xshatishlar ijodkorning dunyoni obrazli ko‘rishi natijasida badiiy asarning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Zotan, “badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o‘xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi o‘zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o‘xshatishlar yaratadi, bu o‘xshatishlar kutilmagani, ohorliligi bilan o‘quvchini rom etadi, muavvan ruhiy yoki jismoniy holat-xususiyat-predmetlarni o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalantiradi” [1: 5,6].

2. Turg‘un o‘xshatishlar: *jan kibi, ay dek, esrek ner dek, Mäti dek, Süleyman dek, dag kimin, derya dek, yel dey, göyâ yül hazany, Görogly dek, Mejnun kibi, Guwwas kibi, Kap dek, Nesimi dek, tawus guş dek, sözleri misli bal kibi, mum dey, Şyh Sengan dey, Şibli kimin, Ýusup kibi, Jürjis kibi, Yunus kibi, Isa kibi, Idris kibi, Hudur kibi, Ylyas kibi, güldék yüz, gül kibi iman, tut mysal, Karun kibi, dünýäniñ timsaly düyş, Isgender dek, Eyýup teni dek, yigitlik göyâ bahar, bilbil kibi, telbe dek* va boshq. Masalan:

Her dilber kim könlüm öyün yarydar,

Ýatan bagtyn ol Ýaradan ýörüder,

Gargyşym daşlary *mum dey* erider,

Pür-pudak ýáýradar alkyñ kylanym (“Bagrym dilenim”) [2: 191].

Shoir she’rlarida qo‘llanilgan turg‘un o‘xshatishlar bir tomondan xalq tilida an’anaviy ravishda ishlatilib kelinayotgan o‘xshatish etalonlari (gul, oy) asosida hamda turkman mumtoz adabiyotida, aniqrog‘i, turkiy xalqlar mumtoz she’riyati tilidagi diniy, afsonaviy-mifologik shaxs nomlari (Go‘ro‘g‘li, Majnun, Qorun, Iskandar, Yusuf, Nasimiy, Iso kabi)asosida ham shakllangan. Darhaqiqat, “turg‘un o‘xshatishlarning mohiyati shundan iboratki, ularda o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan ko‘llanilgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg‘unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgirgan bo‘ladi. Bunday o‘xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi” [1: 6].

Firog‘iy she’rlarida o‘xshatishning shakli ko‘rsatkichlari ham turlicha yuzaga chiqqanligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan:

*dek: ay dek, esrek ner dek, Mäti dek, Süleyman dek, derya dek, Görogly dek, Kap dek, Nesimi dek, tawus guş dek, güldék yüz, Isgender dek, Eyýup teni dek, telbe dek, Rum dek, ak kagaz dek (bilek), Gülferhar dek, zagpyran dek, köwser dek* va boshqalar. Masalan:

Magtymguly áýdar, *Rum dek* oýanmaz,

Isgender gorsudyr dōwülmez, synmaz,

*Dag kimin deprenmez, derýa dek dönmez,*

Bu ýomut, gökleňň ili siziňdir (“Aly siziňdir”) [2: 38].

deý: *ýel deý, mum deý, Şyh Sengan deý* va b.

kibi: *jan kibi, Mejnun kibi, Guwwas kibi, Ýusup kibi, Jürjis kibi, Ýunus kibi, Isa kibi, Idris kibi, Hudur kibi, Ylýas kibi, gül kibi iman, Karun kibi, bilbil kibi.*

kimin: *bijin kimin, dag kimin, Şibli kimin* ýa b.

misli: *misli guýun dek, sözleri misli bal kibi.*

göýä: *göýä ýyl hazany, ýigitlik göýä bahar.*

mysal: *tut mysal.*

Umuman, Maxtumquli she’rlari tilini lingvistik jihatdan tadqiq qilish, uning asarlari tilidagi o’xshatish birliklarni struktur-semantik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish nafaqat turkman tilshunosligi uchun, balki turkologiya, tarixiy leksikologiya, tarixiy lingvopoetika masalalarini o’rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

#### ADABIYOTLAR:

1. Махмудов Н., Худойбергенова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. –Б.5.
2. Magtymguly. Saýlanan eserler ýygyndysy. – Aşgabat: “Türkmen döwlet neşriýaty gullygy”, 2014.
3. Radjapbaevich, K. N., Allambergenovich, K. M., Dauletbayevich, A. S., Adilbayevna, K. Z., & Gulmanovna, Y. N. (2023). The Dialectal Structure of the Work "Oltun Yoruğ". *Telematique*, 7739-7744.
4. Radjapbaevich, K. N., & Durdona, A. (2022). Ancient turkish language and koyne event.
5. Киличов, Н. Р. (2021). «Олтун ёруғ» асарида инсон тана аъзолари билан боғлиқ лексемалар. *Вестник КГУ им. Бердаха*. №, 2, 242.
6. Kilichov, N. R., & Kabulov, I. (2023). “Köñül” komponentli frazeologizmlarning ba’zi xususiyatlari (Maxtumquli she’rlari misolida). *Zamonaviy taraqqiyotda ilm-fan va madaniyatning o’rni*, 2(6), 130-134.
7. Kabulov, I., & Kilichov, N. R. (2023). Maxtumquli she’rlaridagi ba’zi somatizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari. *Zamonaviy fan va ta’lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal*, 1(8), 72-79.
8. Radjapbayevich, K. N. (2023). Elements of the kipchak dialect in ancient turkic language (In the example of the lexicon of the “OltunYoruk” work). *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 2(5), 108-114.